

KOMPETENTLILIKKA ASOSLANGAN YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI USTUVOR AHAMIYATI

Egamberdiyev Oyatillox Alisher o'g'li,

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktrati

E-mail: eyatillox@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-9557-9386>

Annotatsiya. Mazkur maqola kompetentlikka asoslangan yondashuvning bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimidagi ustuvor ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot Farg'ona davlat universitetining pedagogika yo'nalishi 4-kursida tahsil olayotgan 42 nafar talaba ishtirokida tajriba-sinov asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari, interaktiv metodlar va amaliy topshiriqlar tizimli ravishda joriy etildi. Natijalar tahlili tajriba guruhida yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyaga ega talabalar ulushi 20 foizdan 32 foizgacha oshganini, past darajadagi ko'rsatkichlar esa 30 foizdan 18 foizgacha kamayganini ko'rsatdi. Olingan natijalar kompetentlikka asoslangan yondashuv pedagog kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, bo'lajak pedagog, kasbiy kompetentlik, pedagogik ta'lim, innovatsion faoliyat, refleksiya, ta'lim sifati, pedagogik tayyorgarlik.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению приоритетного значения компетентностного подхода в системе подготовки будущих педагогов. Исследование проводилось на основе опытно-экспериментальной работы с участием 42 студентов 4 курса педагогического направления Ферганского государственного университета. В процессе исследования были системно внедрены технологии обучения, ориентированные на формирование компетенций, интерактивные методы и практико-ориентированные задания. Анализ результатов показал, что доля студентов с высоким уровнем профессиональной компетентности в экспериментальной группе увеличилась с 20% до 32%, тогда как показатели низкого уровня снизились с 30% до 18%. Полученные результаты подтверждают, что компетентностный подход является важным фактором повышения эффективности подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: компетентностный подход, будущий педагог, профессиональная компетентность, педагогическое образование, инновационная деятельность, рефлексия, качество образования, профессиональная подготовка.

Abstract. This article is devoted to studying the priority importance of the competency-based approach in the system of training future teachers. The research was conducted through an experimental study involving 42 fourth-year students of the pedagogical program at Fergana State University. During the study, competency-oriented teaching technologies, interactive methods, and practice-based tasks were systematically implemented. The results showed that the proportion of students with a high level of professional competence in the experimental group increased from 20% to 32%, while the proportion of students with a low level decreased from 30% to 18%. The findings confirm that the competency-based approach is an important factor in improving the effectiveness of teacher training.

Keywords: competency-based approach, future teacher, professional competence, teacher education, innovative activity, reflection, education quality, professional training.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida o'qituvchidan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash, pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda ta'lim jarayonini boshqarish kompetensiyalari talab etilmoqda. Shu

nuqtayi nazardan, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kompetentlikka asoslangan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini faqat bilimlar hajmi bilan emas, balki shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligi, amaliy ko'nikmalari, ijtimoiy moslashuvchanligi va refleksiv faoliyati bilan baholashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv bo'lajak pedagoglarda kasbiy, kommunikativ, axborot-kommunikatsion hamda umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada pedagog kadrlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va kasbiy faoliyat samaradorligi ortadi. Pedagogik ta'lim amaliyotida kompetentlikka asoslangan yondashuvni tizimli joriy etish, uning mazmuni va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda o'quv jarayoniga samarali tatbiq etish masalalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor ahamiyatini ilmiy asoslash zaruratini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi tadqiqotlarda pedagogik ta'lim sifatini oshirishning asosiy omili sifatida kompetentlikka asoslangan yondashuvni joriy etish zarurligi alohida ta'kidlanmoqda. Ushbu yondashuv ta'lim natijalarini nazariy bilimlar bilan cheklab qo'ymasdan, shaxsning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligi, amaliy ko'nikmalari, refleksiv faoliyati va ijtimoiy moslashuvchanligi orqali baholashni nazarda tutadi. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-metodologik asoslari I.A.Zimnyaya tomonidan ta'lim natijasini shaxsning kasbiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorligini ifodalovchi integrativ sifat sifatida talqin qilish orqali asoslab berilgan. A.V.Xutorskoy kompetensiyalarni ta'lim mazmunining tarkibiy elementi sifatida ko'rib, o'quv jarayonini faoliyatga yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi. N.F.Talyzina esa kasbiy tayyorgarlikning samaradorligini faoliyat nazariyasi asosida izohlab, bilimlarni amaliyot bilan integratsiya qilish muhimligini ko'rsatadi. E.F.Zeer tadqiqotlarida professional kompetentlik shaxsning kasbiy rivojlanish jarayonidagi asosiy natija sifatida baholanib, pedagoglarning refleksiv va innovatsion faoliyati uning muhim komponenti ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Xorijiy tadqiqotlarda kompetensiyaga asoslangan pedagogik ta'limning amaliy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. OECD (2022) hisobotlarida zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligiga innovatsion fikrlash, raqamli savodxonlik va uzluksiz kasbiy rivojlanish qobiliyatlari kiritilgan. UNESCO (2023) tomonidan ishlab chiqilgan o'qituvchi kompetensiyalari modeli pedagoglarning refleksiv faoliyati, o'quv jarayonini individuallashtirish va texnologiyalarni samarali qo'llash ko'nikmalarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Yevropa Kengashining zamonaviy kompetensiyalar doirasi (2020–2022 yangilangan talqinlari) esa pedagogik faoliyatning ijtimoiy-madaniy va kommunikativ jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. Xalqaro ilmiy maqolalarda (Darling-Hammond, 2022; Caena, 2023) kompetensiyaga asoslangan tayyorgarlik modeli amaliy faoliyat, refleksiya va muammoli o'qitish orqali samarali shakllanishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Mahalliy tadqiqotchilar N.Muslimov, B.Xodjayev, Sh.Sharipov, O'.Tolipov va R.Ishmuhamedovlarning ishlarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik asoslari yoritilgan. Ular pedagogik ta'lim jarayonini amaliyotga yo'naltirish, interaktiv va innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda talabalarning mustaqil va refleksiv faoliyatini rivojlantirish pedagogik tayyorgarlik samaradorligini oshirishini asoslab bergan. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari hamda pedagog kadrlar tayyorlashdagi umumiy pedagogik imkoniyatlari yetarli darajada o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida kompetentlikka asoslangan yondashuvning ustuvor komponentlarini kompleks asoslash, ularning rivojlanish darajasini aniq mezonlar asosida baholash hamda tajriba-sinov orqali amaliy samaradorligini aniqlash masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda ilmiy-metodik tadqiqotlarni chuqurlashtirish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlar asosida olib borildi. Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kasbiy, kommunikativ, axborot-kommunikatsion va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlashga xizmat qildi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini berdi. Tizimli yondashuv esa pedagogik ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va o'quv faoliyatini o'zaro bog'liqlikda o'rganish hamda kompetensiyalarni kompleks shakllantirishni nazarda tutdi.

Tadqiqot Farg'ona davlat universitetining pedagogika yo'nalishi talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlarida jami 42 nafar talaba qatnashib, ular teng miqdorda tajriba (21 nafar) va nazorat (21 nafar) guruhlariga ajratildi. Tadqiqot diagnostik, tajriba va yakuniy nazorat bosqichlarini o'z ichiga oldi. Diagnostik bosqichda talabalarning kasbiy kompetentligining boshlang'ich darajasi aniqlanib, tajriba bosqichida kompetentlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari hamda amaliy mashg'ulotlar tizimli ravishda joriy etildi. Nazorat guruhida esa ta'lim jarayoni an'anaviy metodlar asosida olib borildi. Nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, tizimlashtirish hamda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish qo'llanildi. Empirik metodlar qatoriga pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test topshiriqlari, talabalarning o'quv faoliyati natijalarini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash usullari kiritildi. Diagnostika vositasi sifatida 25 ta savoldan iborat so'rovnoma hamda 20 ta test topshirig'i ishlab chiqildi.

Talabalarning kasbiy kompetentligini baholash motivatsion, kognitiv va faoliyatli komponentlar asosida amalga oshirildi. Motivatsion komponent kasbiy faoliyatga qiziqish va o'z-o'zini rivojlantirishga intilish orqali, kognitiv komponent pedagogik bilimlarning tizimliliigi va mazmuniy darajasi orqali, faoliyatli komponent esa pedagogik vaziyatlarni

hal etish, amaliy topshiriqlarni bajarish va interaktiv metodlardan foydalanish ko'nikmalari orqali aniqlanadi. Har bir komponent bo'yicha past, o'rta va yuqori darajalar uchun aniq indikatorlar belgilandi.

Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan qayta ishlanib, foiz ko'rsatkichlari va o'rtacha qiymatlar asosida tahlil qilindi. Guruhlar o'rtasidagi farqning ishonchligini aniqlash uchun Studentning t-mezoni qo'llanildi ($p < 0,05$). Shu bilan birga, tadqiqot tanlanmasining nisbatan cheklanganligi (42 nafar talaba) olingan natijalarni umumlashtirish imkoniyatini ma'lum darajada chegaralashi mumkinligi metodologik cheklov sifatida e'tirof etildi. Mazkur metodologik yondashuv kompetentlikka asoslangan yondashuvning bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonidagi samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot jarayonida kompetentlikka asoslangan yondashuvni bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimiga joriy etishning samaradorligi tajriba-sinov asosida o'rganildi. Diagnostik bosqich natijalari har ikkala guruhda ham talabalarning kasbiy kompetensiyalari, xususan, pedagogik faoliyatni rejalashtirish, muammoli vaziyatlarni hal etish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining asosan o'rta va past darajada shakllanganini ko'rsatdi. Bu holat ta'lim jarayonini amaliy faoliyatga yo'naltirish va kompetensiyaga asoslangan yondashuvni kuchaytirish zarurligini tasdiqladi.

Tajriba bosqichida tajriba guruhida kompetentlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, muammoli topshiriqlar, loyiha ishlari va amaliy mashg'ulotlar tizimli ravishda qo'llanildi. Nazorat guruhida esa o'quv jarayoni an'anaviy metodlar asosida tashkil etildi. Yakuniy nazorat natijalari guruhlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi.

Talabalarning kasbiy kompetentligi rivojlanish darajasi

1-jadval.

Daraja	Tajriba guruhi (boshlang'ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (boshlang'ich)	Nazorat guruhi (yakuniy)
Past	30%	18%	31%	27%
O'rta	50%	50%	50%	50%
Yuqori	20%	32%	19%	23%

Olingan ma'lumotlari tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 20 foizdan 32 foizgacha oshganini, past darajadagi ko'rsatkichlar esa sezilarli kamayganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar nisbatan past darajada kuzatildi. Matematik-statistik tahlil natijalariga ko'ra, tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farq ishonchli ekanligi aniqlandi ($t = 2.41$; $p < 0.05$).

Komponentlar kesimida tahlil natijalari motivatsion komponent bo'yicha talabalarda kasbiy faoliyatga qiziqish va o'z ustida ishlashga intilish kuchayganini ko'rsatdi. Kognitiv komponent doirasida pedagogik bilimlar tizimlashib, ularni amaliy faoliyatda qo'llash

darajasi oshdi. Eng sezilarli o'sish faoliyatli komponentda kuzatilib, talabalar pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion metodlardan foydalanish hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirdilar.

Olingan natijalar xorijiy tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Xususan, OECD (2022) va UNESCO (2023) hisobotlarida kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli pedagoglarning amaliy tayyorgarligi, reflektiv faoliyati va kasbiy moslashuvchanligini oshirishda samarali ekanligi ta'kidlangan. Darling-Hammond (2022) tadqiqotlarida ham interaktiv va faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim metodlari o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, tajriba jarayonida qo'llanilgan metodlar talabalarning reflektiv fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy mas'uliyat hissini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, olingan natijalar kompetentlikka asoslangan yondashuvni bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga joriy etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim pedagogik sharti ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot kompetentlikka asoslangan yondashuvni pedagogik ta'lim jarayoniga joriy etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqladi. Tajriba-sinov natijalari talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasida ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi. Xususan, tajriba guruhida yuqori darajadagi kompetentlikka ega talabalar ulushi ortib, past darajadagi ko'rsatkichlar sezilarli darajada kamaydi. Nazorat guruhidagi natijalar bilan qiyosiy tahlil qo'llanilgan metodkaning pedagogik samaradorligini asoslab berdi.

Komponentlar kesimidagi o'zgarishlar talabalarda kasbiy motivatsiya, pedagogik bilimlarning tizimliliigi hamda amaliy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalari o'rtasida uzviy bog'liqlik shakllanganini ko'rsatdi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va mustaqil qaror qabul qilishga oid faoliyatli ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilandi. Bu esa ta'lim jarayonining faoliyatga yo'naltirilgan tashkil etilishi kasbiy shakllanishning muhim sharti ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari asosida kompetentlikka asoslangan o'qitish modeli pedagogik ta'lim mazmunini amaliyot bilan integratsiyalash, talabalarning reflektiv va mustaqil faoliyatini rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun ilmiy-metodik asos sifatida tavsiya etiladi. Shu bilan birga, tanlanma hajmining cheklanganligi kelgusida kengroq auditoriya doirasida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.В. Кхуторской *Компетентностный подход в образовании*. Моссow: Эйдос, –2019.
2. Э.Ф.Зеер *Психология профессионального образования*. Моссow: Академия, –2018.
3. Н.Ф.Талызина *Педагогическая психология*. Моссow: Академия, –2018.
4. N.A.Muslimov *Kasbiy ta'lim metodikasi*. Toshkent: Fan, –2020.
5. B.X.Xodjayev *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Sano-standart, –2018.
6. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: Iqtisod-moliya, –2019.

7. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov *Ta'limda innovatsion texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya, –2021.
8. Sh.S.Sharipov Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari. *Pedagogika*, №3, 12–18.
9. J.C.Richards *Curriculum Development in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press, –2017.

